

MATEMATIKA FANINI SAMARALI O'QITISHDA O'QITUVCHINING KASBIY MAHORATI

Soliyeva Gulira'no Abrorjon qizi

Rishton tuman 1-son kasb-hunar maktabi matematika fani o'qituvchisi

Matematika fanini fanlar ichida shoh deb bejizga aytilmagan. Chunki matematika barcha fanlarning asosini tashkil etadi. Shunday ekan matematika fanini o'qitish har doim dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolaveradi.

Matematikani fanini o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (matematikadan nimalarni o'rganish kerak? Bolalarga bilim qanday berilganda bu bilim fan, texnika va madaniyatning hozirgi zamon taraqqiyoti talablariga mos keladigan bo'ladi?

Tizimlashtirilgan bilimlar doirasini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quvchilarga o'quv mashg'ulotlari beradigan ortiqcha zo'riqish bartaraf qilinadi, ta'limning mazmuni o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga mos keladi).

O'qitish metodikasini ilmiy ishlab chiqish (matematikani qanday o'rganish kerak, ya'ni o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka, aqliy faoliyat qobiliyatini egallashlari uchun o'quv ishlari uslubi qanday bo'lishi kerak? Bilimlarni egallash jarayonida o'quvchilarning shaxsiyati rivojlanishi va shakllanishi uchun qanday o'qitish kerak?).

O'qitish vositalarini - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatmali qo'llanmalar, kompyuterli elektron resurslar: slaydlar, elektron darslik va dasturlarni ishlab chiqish (nima yordamida o'qitish).

Ta'limni tashkil etishni ilmiy ishlab chiqish (ta'limni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday o'tkazish, o'quv ishlarini qanday tashkil qilish, o'quv jarayoni

bilimlarni egallash jarayonigina bo'lib qolmasdan, balki o'quvchilar shaxsining tarkib topishi va rivojlanishi jarayoni ham bo'lishi uchun o'quv ishlarini qanday tashkil etish, tarbiyaviy masalalarni qanday qilib samaraliroq hal qilish)

Matematikani o'qitish yana shuning uchun kerakki, bu fan bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omillardan



biridir. Jamiyat taraqqiyoti va farovonligini ta'minlashda fuqarolarning zimmasiga ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni mustaqil bartaraf etish kabi vazifalarni yuklaydi. Ushbu vazifalarning eng ko'p qismi o'qituvchilar, shu jumladan matematika fani o'qituvchilar zimmasida bo'ladi. O'qituvchi serqirra bo'lsa muammolarni yechish oson kechadi. O'qituvchi faoliyati qirralari haqida gap ketar ekan unu 5 turga ajratish mumkin.

I. BILIMDONLIK:

- o'qitadigan fanini puxta bilishi;
- notiqlik sanqatiga (o'quv materiallarini tushunarli va ravon tilda bayon qila olish malakasiga) ega bo'lishi;
 - o'qitish vositalari (tevarak - atrofdagi buyumlar, maketlar, o'quv-tajribalari uchun asbob-uskunalar, grafik vositalar: rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar va hokazolar,
 - o'qitishning axborot texnologiyalari vositalari: (komp'yuter, videoproektor, electron doska, planshet, elektron darsliklarni, komp'yuter xotirasidagi o'quvchilar uchun nazorat materiallarini ishlata bilish, ovoz va videoyozuvlar xokazolar)idan foydalanishni egallaganligi;
 - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini taxlil qila olishi va ularni baholay olishi;
 - bilimlarni uzluksiz mustaqil egallab borishi;
 - o'qituvchining shaxsiy sifatleri (mehnatsevarlik, ishga ijodiy yondashish, mustaqillik, kamtarlik, yuksak mahnaviyatlilik, epchillik, hozirjavoblilik, vazminlik, mas'uliyatlilik, sinchkovlik, kathyatlilik, batartiblik, sabotlilik, tirishqoqlik. ijrochilik, vijdonlilik, xolislik, har tomonlama bilimdonlik, kuzatuvchanlik, xushmuomulalik, bolalarni sevishi va ular shaxsini hurmat qilish va boshqalar).

II. RIVOJLANTIRILGANLIK:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning o'quv imkoniyatlarini bilishi;
- o'quvchilarni o'z faniga qiziqтира olishi;
 - ta'limning turli metodlari (bayoniy-tasviriy, reproduktiv, muammoli ta'lim, evris-tik (izlanuvchan) metod, tadqiqot metodi, interaktiv metodlar, kompyuter texnologiyalari) ni egallaganligi.

III. YO'NALTIRILGANLIK:

- o'qitish prinsiplari sistemasi (o'qitish jarayonida o'quvchilar shaxsini har tomon-lama rivojlantirish, ilmiylik va bilimlarning o'quvchilar imkoniyatiga yarasha qiyinlik



darajasi, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ongliligi va ijodiy faolligi, o'qitishda ko'rsatmalilik va o'quvchilarning nazariy tafakkurini rivojlantirish, sistemalilik va

izchillik, o'qitishda bilimlarni mustaqil egallashga o'tishni tahminlash, o'qitishni ijtimoiy hayot, mamlakatimizda mustaqillik davridagi isloxotlar, tub o'zgarishlar jarayoni bilan bog'lash, o'qitish natijalarining puxtaligi va o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini rivojlantirish, o'qitish jarayonida ijobiy hissiyot yaratish, o'quvchi-larning individual xususiyatlarini hisobga olish) ni o'zlashtirganligi.

IV. SAFARBARLIK:

- darsda o'quvchilarning diqqatini barqarorlashtirishi;
- har xil tipdagi darslar (yangi bilimlarni o'zlashtirish, malaka va ko'nikmalarni egallash, bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, sistemalashtirish va umumlash-tirish, nazorat qilish va tuzatish, aralash dars)ni o'tkaza olishi;
- politexnik ta'limga oid va kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshira olishi;
- egallagan bilimlarni sistemalashtirishi va umumlashtirishi;
- hazil - mutoyibani uddalay olishi;
- mehnatni ilmiy asosda tashkil qila olishi va unga qo'yiladigan estetik va gigienik talablarga rioya qila olishi.

V. LOYIHACHILIK:

- o'z mutaxassisligiga oid maktab kursini puxta bilishi;
- o'z fanining metodikasini yaxshi bilishi;
- o'qitish va o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish uchun o'quv manbalarini tanlay olishi;
- o'qitishda fanlararo ichki va tashki alokalardan foydalanish malakasi;
- kerakli hujjatlarni to'g'ri olib borishi va rasmiylashtirishi;
- asosiy tarbiyaviy ishlarning turlarini aniqlashi va ularni o'tkazish shakllarini tanlashi;
- fan kabinetlarining talab darajasi asosida, zarur vositalar bilan qanday jihozla-nishini bilishi va xonani ko'rgazmali o'quv qurollari bilan boyitib borish malakasi.

Pedagogik talablar. Nazariyani tushunishda ko'rgazmalilikning ahamiyati, matematikadan olgan bilimni amaliyotga qo'llay bilishi,



o'quvchilarning dunyo-qarashini shakllantirish, bilim saviyasini ko'tarish va rivojlantirish - matematika xonasiga qo'yilgan talablardir.

O'qituvchi va o'quvchining ish unumdorligini oshirish uchun xonani jihozlashda barcha mayda ishlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bu maktab mate-matika xonasiga qo'yilgan asosiy talablardan biridir. O'qituvchining ish joyi va o'quvchining ish joyi, sinf doskasi va o'quv qurollarini saqlash uchun shkaflar, xonani qorong'ilatish va boshqa jihozlar maksimal darajada ishlash uchun qulay bo'lishi kerak. Yuqori saviyada matematik bilimni egallashda katta foyda kasb eta-digan asosiy o'quv qurollari, mavzuni o'tishdagi o'quv vositalari dars jarayonining ajralmas qismidir. Matematika xonasi dars paytidagi o'qituvchi va o'quvchining

mehnat qilayotgan asosiy ish joyidir, shuning uchun barcha harakat unga yo'nalgan bo'lishi kerak. O'quvchi shu xonada matematikadan asosiy bilim olib, fikrlash qobiliyatini o'stiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, taraqqiyotga matematika ko'zi bilan qaraydi. Shuning uchun matematika xonasida yuqoridagilarni amalga oshirishda undagi jihozlardan o'quvchilarning unumli, uz o'rnida foydalanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, matematika xonasidagi barcha o'quv qurollari, ko'rgazma vositalari hamda boshqa vositalar ta'limning ilg'or metod va shakllarini qo'llashga, o'quvchi-larda mustahkam va chuqur bilim, malaka va kunikmalarni hosil qilishda ularni fan asoslari bilan puxta qurollantirishga, ularda yuksak onglilikni tarkib toptirish, yoshlarni hayotga ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashga imkon berish kerak.

Ilmiy talablar. Matematika xonasining asosiy maqsadi- dars jarayonining to'g'ri tashkil qilinib, o'quvchilarga ilmiy bilim berish, o'tilgan nazariyani ko'rgazmali ravishda tushuntira bilishdir.

